YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTON SANOATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Isoqova Aziza Alisher qizi
E-mail: azizaisokova00@gmail.com
+998 99 355-55-27

Annotatsiya. Mazkur tezisda yashil iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston sanoatini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, energiya samaradorligini oshirish, yashil investitsiyalarni jalb etish hamda chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Yashil iqtisodiyot, yashil investitsiya, tabiiy resurs, chiqindisiz texnologiya, kam chiqindili texnologiya, qayta tiklanadigan energiya.

Аннотация. В тезисе рассмотрены экономические механизмы устойчивого развития промышленности Узбекистана в условиях зелёной экономики. Освещены вопросы повышения энергоэффективности, привлечения зелёных инвестиций и внедрения безотходных и малоотходных технологий.

Ключевые слова. Зелёная экономика, зелёные инвестиции, природные ресурсы, безотходные технологии, технологии с низким уровнем отходов, возобновляемая энергия.

Abstract. This thesis examines the economic mechanisms for the sustainable development of Uzbekistan's industry in the context of the green economy. It highlights the importance of improving energy efficiency, attracting green investments, and implementing zero-waste and low-waste technologies.

Keywords. Green economy, green investment, natural resource, zero-waste technology, low-waste technology, renewable energy.

Hozirgi kunda butun dunyo miqyosida dolzarb hisoblangan ekologik muammolar, jumladan iqlimning keskin o‘zgarishi, tabiiy resurslarning qisqarishi, o‘rmon va yashil hududlarning kamayib ketishida sanoat sohasining ma’lum bir darajada o‘rni bor. Shu sababli, hozirda sanoatni rivojlantirishning yangi yondashuvlari talab etilmoqda. Natijada, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi sanoatining iqtisodiy o‘sishi bilan birgalikda yuqoridagi muammolarni hal etuvchi omil sifatida ham ko‘rilmoqda.

O‘zbekiston sanoatida ham ayrim sanoat tarmoqlarida yuqori energiya sarfi, ishlab chiqarish uskunalarining eskirganligi va yuqori quvvat sarfi hamda ekologik yuklamaning ortishi ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida modernizatsiya qilish O‘zbekiston sanoatidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.[1]

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan.[2] Ushbu

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atrof-muhitni muhofaza qilish va “Yashil iqtisodiyot” yilida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish davlat dasturi to‘g‘risida” PF–16-son Farmoni. – 2025-yil 30-yanvar. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7369703

[2] Pardayev M. Yashil iqtisodiyot nima? // Zarnews. – 2021. – 5-iyun. – URL: https://zarnews.uz/uz/post/yashil-iqtisodiyot-nima

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

modelning asosiy tamoyillariga energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish hamda resurslardan unumli foydalanishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston sharoitida sanoat korxonalarida issiqlik energiyasi hisobiga energiya sarfi juda yuqori hisoblanadi. Binolarda energiya samaradorligini oshirish va energiya tejash uchun quyidagi yo‘nalishlar va amaliy choralar tavsiya etiladi:

1. Issiqlik izolyatsiyasini yaxshilash:
- Devor, tom va polni izolyatsiya qilish issiqlik chiqishini 30–40% gacha kamaytiradi;
- Eshik va oynadan issiqlik chiqishini cheklash;
- Ikki qavatli (dvoynoy) yoki uch qavatli shisha paketlar o‘rnatish;
- Oyna atrofini germetiklashtirish;
- Issiqlik ko‘rsatkichi past (low-E) oyna texnologiyalarini joriy qilish.

2. Yoritish tizimini optimallashtirish:
- Yorug‘lik diodli (LED) lampalardan foydalanish – an’anaviy lampalarga nisbatan 50–70% energiya tejaydi;
- Avtomatik yoritish sensorlari - hech kim yo‘q bo‘lganda chiroqlarni o‘chirish;
- Tabiiy yorug‘likdan maksimal foydalanish.

3. Isitish va havoni maromlash tizimlarini samarali boshqarish:
- Iqlim nazorati (termostat) o‘rnatish - haroratni avtomatik boshqarish orqali energiya tejash;
- Haroratni optimal darajada ushlash: qishda: 20–22°C, yozda: 24–26°C.
- Havo aylanish tizimlarini muntazam tozalash.[3]

So‘nggi yillarda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun yashil investitsiyalar strategiyasi amaliyotga tatbiq etilmoqda. Yashil investitsiyalar deganda, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, aksincha, uni muhofaza qilishga xizmat qiladigan, energiya va resurslarni tejashga yo‘naltirilgan investitsiya faoliyati tushuniladi. Yashil investitsiyalarni amalda qo‘llash orqali sanoat korxonalari energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish modellari, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ekologik toza transport vositalariga o‘tish ko‘zda tutiladi. Shu jumladan yashil investitsiyalar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Qayta tiklanadigan energiya: quyosh, shamol, geotermal va biomassa manbalariga asoslangan energiya ishlab chiqarishni moliyalashtirish;

Energiya samaradorligini oshirish: elektr energiyasi va issiqlik sarfini kamaytiruvchi texnologiyalarni joriy etish;

Ekologik infratuzilma: atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan muhandislik va texnologik yechimlar, masalan, suvni tozalash inshootlari, chiqindilarni qayta ishlash zavodlari;

Uglerod chiqindilarini kamaytirish: karbonsiz iqtisodiyotga o‘tish, uglerod bozorini shakllantirish, emissiya kvotalari savdosini rivojlantirish.

O‘zbekiston sanoatiga ham so‘nggi yillarda yashil investitsiyalar kirib kelib, amalda tatbiq etilmoqda. Masalan, “Namangan Sement” korxonasi Xitoyning Sinoma Hefei Cement Research & Design Institute kompaniyasi bilan birgalikda hamkorlik dasturlarini ishlab chiqishdi va unga ko‘ra 43 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritildi va 60 MVt quvvatga ega yashil energiya loyihasi

[3] Qalbayeva I. E. Yashil investitsiyalarni jalb qilish orqali sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish mexanizmlari // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – Vol. 4, No. 6. – B. 119–122. – DOI: 10.5281/zenodo.15708920

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

amalga oshirildi. Natijada korxonaning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojining 80 foizigacha qayta tiklanuvchi energiya hisobidan qoplanishi rejalashtirilgan.

O'zbekistonda chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni rivojlantirishda quyidagi ekologik mexanizmlar muhim ahamiyatga ega:

1. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;
2. Chiqindilarni joylashtirish va utilizatsiya qilish bo'yicha ekologik me'yorlarni joriy etish;
3. Korxonalarda ekologik menejment tizimlarini (ISO 14001) tatbiq etish;
4. Ekologik monitoring va davlat nazoratini kuchaytirish.

Mazkur mexanizmlar qo'llanilishi ishlab chiqarish subyektlarining ekologik mas'uliyatini oshirib, tabiatga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi.[4]

O'zbekistonda ham chiqindisiz **(zero waste)** va kam chiqindili **(low waste)** texnologiyalar sanoat va kommunal xo'jalik sohalarida bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Misol uchun, Angren shahrida rezina shinalarni qayta ishlash zavodida eski avtomobil shinalarini maydalash va granula holiga keltirish jarayonida chiqindilar poligonga yuborilmay, ikkilamchi xom ashyo sifatida qayta foydalaniladi. Natijada, rezina qoplamalar, sport maydonchalari uchun qoplama, yo'l qurilishida ishlatiladigan materiallar ishlab chiqariladi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot tamoyillarini sanoat sohasiga tatbiq etish O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim ro'l o'ynaydi. Energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, yashil investitsiyalarni jalb etish hamda chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish sanoat korxonalarining ustuvorligini oshirish bilan birga, hozirda O'zbekiston hududida ham dolzarb hisoblangan ekologik muammolarga yechim hisoblanadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Namangan Sement" korxonasidagi yashil energiya loyihasi, Chirchiqdagi yashil vodorod ishlab chiqarish tashabbuslari hamda Angrendagi rezina shinalarni qayta ishlash kabi amaliyotlar yashil iqtisodiyotning samarasini ko'rsatib bermoqda. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bilan birgalikda amalga oshirilgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" dasturida so'zlagan nutqi va shu kabi yashil iqtisodiyotga asoslangan loyihalarda O'zbekistonning faol ishtiroki ham sanoat sohasida yashil iqtisodiyotning jadal kengayib borayotganligini ko'rsatib bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori, https://lex.uz/docs/-4539502
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Atrof-muhitni muhofaza qilish va "Yashil iqtisodiyot" yilida "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish davlat dasturi to'g'risida" PF–16-son Farmoni. – 2025-yil 30-yanvar. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7369703
3. Pardayev M. Yashil iqtisodiyot nima? // Zarnews. – 2021. – 5-iyun. – URL: https://zarnews.uz/uz/post/yashil-iqtisodiyot-nima
4. Qalbayeva I. E. Yashil investitsiyalarni jalb qilish orqali sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish mexanizmlari // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – Vol. 4, No. 6. – B. 119–122. – DOI: 10.5281/zenodo.15708920

[4] Tashkentbayev I. E., Kosimova Sh. E., Jovliyev S. B. O'zbekistonda chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni joriy etishning ekologik-iqtisodiy mexanizmlari // Journal of International Scientific Research. – 2026. – Vol. 3, No. 8. – B. 893–898.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

5. Tashkentbayev I. E., Kosimova Sh. E., Jovliyev S. B. O‘zbekistonda chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni joriy etishning ekologik-iqtisodiy mexanizmlari // Journal of International Scientific Research. – 2026. – Vol. 3, No. 8. – B. 893–898.
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi. O‘zbekistonda “Yashil” o‘sish va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha siyosiy muloqotlar turkumi: Ishlar to‘plami**.** – Washington, D.C.: Jahon banki, 2022. – URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/099905206302223031/pdf/P1708700b978730eb09a17023c938c721bc.pdf
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Qurilish, sanoat, chiqindilar va ekologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar.
8. Qurilish sanoatida resurs tejamkor ishlab chiqarish tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. // Green Economy and Development. – URL: https://greeneconomy.uz/

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.